

**TOPINAMBUR (HELIANTHUS TUBEROSUS) NING O‘SISHI VA RIVOJLANISHI
(TERMIZ SHAHRIDAGI TAJRIBA NATIJALARI ASOSIDA)**

OMONOV MAMATQOBIL ISMOILOVICH

**Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti botanika kafedrası dotsenti biologiya
fanlari doktori katta o‘qituvchi**

Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti talabasi

Keldiyorova Hayitgul

keldiyorovahayitgul5@gmail.com

KIRISH

Oxirgi yillarda dunyo miqyosida ekologik toza va foydali qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga talab ortib bormoqda. Shulardan biri – topinambur (*Helianthus tuberosus*) o‘simligidir. Uning asosiy qiymati – inulin moddasiga boy bo‘lgan tuganaklarida mujassam. Inulin diabet kasalligida shakar o‘rnini bosuvchi tabiiy polisaxarid bo‘lib, topinamburni nafaqat oziq-ovqat sanoatida, balki dori-darmonlar ishlab chiqarishda ham muhim xomashyo sifatida qadrlanishiga sabab bo‘lmoqda.

O‘shish va rivojlanish bosqichlari

Topinambur o‘shishi 4 asosiy bosqichda kechadi:

1. Nihollanish davri

Tuganaklar Termiz shahrida bahor oyida, tuproq 11–12 °C ga yetganda, 10–12 sm chuqurlikda ekildi. Nihollar 12 kundan so‘ng ko‘rindi. Tuproq namligi o‘rtacha 65–70% atrofida bo‘ldi. Janubiy iqlim tufayli nihollanish tez kechdi.

2. Vegetatsiya davri

30-kunida o‘simlik balandligi o‘rtacha 45 sm ni tashkil etdi. 60-kunida esa o‘shish keskin tezlashib, o‘simliklar 120–140 sm balandlikka yetdi. Fotosintez jarayoni kuchaygan sari barglar soni va hajmi ham ortdi. Har 10 kunda o‘rtacha 20–25 sm ga o‘shish kuzatildi. Termizning quyoshli va issiq iqlimi o‘shishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

3. Gullash va tuganak hosil qilish

Avgust oyining oxirida gullash boshlandi. Tuganak hosil qilish avgust o‘rtalaridan kuzatildi. Tuganaklar soni bir o‘simlikda o‘rtacha 15–20 tani, og‘irligi esa 1 tupdan 1,2–1,5 kg ni tashkil etdi. Tuproq unumdorligi yaxshi bo‘lgani uchun tuganaklar yirik va to‘liq shakllandi.

4. Hosil yig‘ish davri

Oktyabr oyida hosil yig‘ildi. Kuzda yog‘ingarchilik kam bo‘ldi, bu yig‘im-terim uchun qulay sharoit yaratdi. Olingan hosildorlik 1 so‘m yerda o‘rtacha 20–25 tonnani tashkil etdi. Tuganaklar silliq, yirik va sog‘lom chiqdi

Agrotexnik tadbirlar

Tajriba davomida har 15 kunda begona o‘tlar tozalandi, 2 marta mineral o‘g‘itlar (azot va kaliy) solindi. O‘rtacha 3 marta sug‘orish amalga oshirildi. Yerni erta bahorda 25–30 sm chuqurlikda haydab, chirindi qo‘shildi. Termizdagi qumloq va sho‘rga moyil bo‘lgan tuproqlarda ham o‘simlik yaxshi o‘sadi.

XULOSA

Tajriba asosida aniqlanishicha, topinambur Termiz shahrining iqlim va tuproq sharoitiga yaxshi moslashadi. O‘zining oddiy parvarish talablariga qaramay, yuqori hosildorlikka ega. Bu o‘simlikni qishloq xo‘jaligi mahsuloti sifatida kengroq yetishtirish, sog‘lom ovqatlanishni targ‘ib qilish, tuproqni saqlash va biofaollikni oshirish uchun juda foydalidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI

1. Yuksak o'simliklar sistematikasi O'. Prator Q. Jumayev Toshkent 2003. Toshkent. 120-b.
2. R.I.Toshmuhammedov "O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar" Toshkent 2006 y 104-106 b.
3. Abdulina S.A. Список сосудистых растений Казахстана. – Алматы. 1998. – 187 b.
4. Bondaenko O.N. Определитель высших растений Каракалпакии. Ташкент «Наука» 1964. – 303 b.
5. Golubev V.N. Эколого-биологические особенности травянистых растений и растительных сообществ лесостепи.— М.: «Наука», 1965. — 287 b.
6. Xasanov F.O. A.I. Allium L. – Лук. Флора Узбекистана. –Ташкент: Navro'z, 2017. – 1-119 b.
7. Jogoleva E.P., Kochkareva T.F. Salvia L. - shalfey. Флора Таджикистана. – Ленинград: Изд-во "Наука" 1986. – 241-257 b.
8. Zokirov K.Z. Флора и растительность бассейна реки Зеравшан. Ч. 2. Конспект флоры. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1961. – 446 b.
9. Krasovkaya L.S., Levichev I.G. Флора Чаткальского заповедника. – Тоашкент: "Fan", 1986. – 176 b.
10. Meliboyev S.va b. "O'zbekiston florasida uchraydigan dorivor o'simliklar.-Farg'ona: "Farg'ona" nashryoti, 2018.-224 b.
11. Никитин В.В., Гелдиханов А.М. Определитель растений Туркменистана. –Л.: "Наука", 1988. – 680 с.
12. Определитель растений Средней Азии. Критический конспект флоры. В XI. – Т.: "Фан", 2016. – 351 с
13. Введенский Е.Г. Флора СССР. Т. 21. М; Л., 1935. – 244-363 с.